| Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish.....                                                                            | 2261 |
| <b>Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li, Rasulov Ulug'bek Obidjon o'g'li</b>                                                                                             |      |
| Milliy iqtisodiyotni barqaror o'sish sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash masalalari..... | 2266 |
| <b>Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li</b>                                                                                                    |      |
| Приоритетные направления дальнейшего развития экономики путем совершенствования операций с ценными бумагами акционерных обществ .....                                  | 2271 |
| <b>Ботиров Азамат Ахмедович, Маликова Угиллой Абдурасуловна</b>                                                                                                        |      |
| Barqaror iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy inkluzivlikning rolini kuchaytirish; resurslar taqsimotining tizimli yondashuvi .....                                       | 2276 |
| <b>Xomidova Kamola G'olib qizi</b>                                                                                                                                     |      |
| Xorijiy mamlakatlarda bank-moliya sohasi rivojlanishida sun'iy intellekt va yuqori texnologiyalarning ta'siri.....                                                     | 2286 |
| <b>Musagaliyev Ajiniyaz Jumagulovich</b>                                                                                                                               |      |
| MS Excel dasturidagi son ko'rinishida bo'lgan pul miqdorini o'zbek tilidagi so'zlar bilan ifodalash.....                                                               | 2291 |
| <b>Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna</b>                                                                                                        |      |



|                                                                                                                                                            |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Joydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....                                                                                                                   | 2299 |
| <b>Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi</b>                                                                                                                    |      |
| Yashil logistika konsepsiyasining barqaror rivojlanishda tutgan o'ri.....                                                                                  | 2305 |
| <b>Boltayeva Shaxnoz Bebudovna, Muxamedova Sevara Azamatovna</b>                                                                                           |      |
| Turizm biznesi tushunchasi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati .....                                                                                     | 2312 |
| <b>Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna</b>                                                                                                                    |      |
| O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida mintaqalar iqtisodiyotining ahamiyati va rivojlanish jarayonlarining empirik tahlillari .....                  | 2314 |
| <b>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</b>                                                                                                                        |      |
| Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash .....                                | 2320 |
| <b>Jubanova Bayramgul, Xojamuratova Guljahan Nishanbay qizi</b>                                                                                            |      |
| Islom iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari .....                                                                                                      | 2326 |
| <b>Muyassar Ziyaviddinovna Muxitdinova, Dilshod Sagdullayevich Muxitdinov</b>                                                                              |      |
| Xorazmda etno-folklor turizmini rivojlantirish: madaniy meros va barqaror taraqqiyot istiqbollari .....                                                    | 2338 |
| <b>Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich, Raimova Nilufar Abdullayevna</b>                                                                                 |      |
| Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda investitsiya darajasini optimallashtirish: empirik tahlil va ekonometrik yondashuv .....                         | 2344 |
| <b>Suhrob Turanov</b>                                                                                                                                      |      |
| Mahsulot diversifikatsiyasini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish masalalari.....                                                                | 2352 |
| <b>Tuychiyeva Odina Nabiyevena</b>                                                                                                                         |      |
| Mintaqada turizmning muhim ko'rsatkichlarini istiqboldagi prognoz qiymatlarini ishlab chiqish.....                                                         | 2358 |
| <b>Jumaniyazova Sharifa Rashidovna</b>                                                                                                                     |      |
| O'zbekistonda kichik biznes subyektlari eksport salohiyatini oshirish: tahlil va prognozlash .....                                                         | 2366 |
| <b>Sharopova Nafosat Radjabovna</b>                                                                                                                        |      |
| Роль центрального банка в контроле инфляции: политика инфляционного таргетирования .....                                                                   | 2372 |
| <b>Пиримкулов Фирдавс Шухратович, Камилова Наргиза Абдукахоровна</b>                                                                                       |      |
| Shaxsiy sug'urta turlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari.....                                                                                       | 2378 |
| <b>Isaeva Xolbibibi Boboqulovna</b>                                                                                                                        |      |
| O'zbekiston tijorat banklarida passivlarni hisobga olish holatining tahlili .....                                                                          | 2382 |
| <b>To'rayev Erkin Eshkabilovich</b>                                                                                                                        |      |
| Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xizmatlari sifatini yaxshilashda marketingning ahamiyati .....                                                     | 2386 |
| <b>B.Y.Hamraev</b>                                                                                                                                         |      |
| O'zbekistonda kutilayotgan uzoq umr ko'rish davomiyligini prognozlash va uning aktuar hisoblarga ta'siri .....                                             | 2391 |
| <b>Qodirov Farxod Amirovich, Axmedova Zilola Zafar qizi</b>                                                                                                |      |
| The role of tax incentives in attracting investments and assessing their effectiveness .....                                                               | 2397 |
| <b>Kudiyarov Kishibay</b>                                                                                                                                  |      |
| Bringing the underground economy into the official economy through financial channels.....                                                                 | 2403 |
| <b>Koshanov Abdimurat Azat uli, Erkinbaeva Shaxnoza</b>                                                                                                    |      |
| Tijorat banklarida kreditlash jarayonini boshqarishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.....                                                               | 2409 |
| <b>Umarov Zafar Absamatovich</b>                                                                                                                           |      |
| Osiyo mamlakatlarining xalqaro investitsiya muhitini yaxshilashda ikki tomonlama soliqa tortishni bartaraf etish vositalaridan foydalanish tajribasi ..... | 2413 |
| <b>Rajapov Shuxrat Zaripbayevich</b>                                                                                                                       |      |
| Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda "yashil" moliyaning roli .....                                                                                        | 2424 |
| <b>Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi</b>                                                                                                                  |      |
| O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari .....                                                        | 2430 |
| <b>D.E.Qarshiev</b>                                                                                                                                        |      |
| Moliyaviy barqarorlikni raqamli texnologiyalar bilan mustahkamlash: korxona darajasidagi yondashuvlar .....                                                | 2435 |
| <b>Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li</b>                                                                                                                    |      |



|                                                                                                                                 |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Tadbirkorlikni samarali boshqarishda va raqamli texnologiyalardan foydalanishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi ..... | 2440 |
| <b>Sattarov Xayrulla Fayzullayevich</b>                                                                                         |      |
| Роль возобновляемых источников энергии в обеспечении устойчивого развития.....                                                  | 2443 |
| <b>А.И. Тураева</b>                                                                                                             |      |
| Budjet daromadlrini shakllntirishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining tutgan o'rne .....                      | 2448 |
| <b>Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Umida Yuldasheva</b>                                     |      |
| Investitsion muhit tushunchasining makroiqtisodiy tahlili va nazariy model.....                                                 | 2454 |
| <b>Saidov Rasul Boltabayevich, Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi</b>                                                             |      |
| Buxgalteriya hisobining konsepsiyasi va prinsiplari.....                                                                        | 2458 |
| <b>Tulaev Mirzakul Salamovich</b>                                                                                               |      |
| Raqamli valyutani joriy etishning pul-kredit tizimiga ta'siri masalalari.....                                                   | 2464 |
| <b>Yakubova Shamshinur Shuxratovna</b>                                                                                          |      |



# BANKLARARO TO'LOV TIZIMI MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



**Abduraximova Feruza Alisherovna**

Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti,  
ORCID: 0009-0004-7380-597  
feruza6696@mail.ru

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada banklararo to'lov tizimi mexanizmining hozirgi holati, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish orqali tizimni takomillashtirish istiqbollari yoritilgan. To'lov tizimi – milliy moliyaviy infratuzilmaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning samarali ishlashi banklar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni tezkor, xavfsiz va ishonchli amalga oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda elektron to'lov vositalarining jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning bank sohasiga chuqur kirib borishi to'lov tizimiga nisbatan yuqori talablarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, banklararo to'lov mexanizmini zamonaviylashtirish, uni avtomatlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Maqolada banklararo to'lov tizimining huquqiy asoslari, Markaziy bank tomonidan joriy etilgan yangi texnologiyalar, mavjud platformalar va ularning ishlash tartibi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba, xususan rivojlangan mamlakatlar to'lov tizimlarining ilg'or jihatlari o'rganilib, ularni milliy tizimga tatbiq etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot davomida tizimdagi asosiy muammolar – kechikishlar, xavfsizlik kamchiliklari, texnik nosozliklar, ma'lumotlar almashinuvidagi uzilishlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** bank, banklararo to'lov tizimi, elektron to'lovlar, raqamli bank xizmatlari, milliy to'lov tizimi, to'lov infratuzilmasi, banklararo operatsiyalar, Markaziy bank, to'lov xavfsizligi, tranzaksiya, moliyaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya, xalqaro to'lov tizimlari, iqtisodiy samaradorlik.

**Abstract:** This article discusses the current state of the interbank payment system mechanism, existing problems and prospects for improving the system by eliminating them. The payment system is one of the most important components of the national financial infrastructure, and its effective functioning allows for quick, safe and reliable settlements between banks. Today, the rapid development of electronic payment instruments in Uzbekistan and the deep penetration of digital technologies into the banking sector create high demands on the payment system. Therefore, the modernization of the interbank payment mechanism, its automation and adaptation to international standards are considered an urgent issue. The article analyzes the legal framework of the interbank payment system, new technologies introduced by the Central Bank, existing platforms and their operation. In addition, international experience, in particular, advanced aspects of payment systems of developed countries, are studied and proposals are put forward for their implementation in the national system. During the study, the main problems in the system - delays, security flaws, technical failures, interruptions in data exchange - were identified and ways to eliminate them were developed.

**Key words:** Bank, interbank payment system, electronic payments, digital banking services, national payment system, payment infrastructure, interbank operations, Central Bank, payment security, transaction, financial technologies, digital transformation, international payment systems, economic efficiency.





**Аннотация:** В данной статье освещается текущее состояние механизма межбанковской платежной системы, существующие проблемы и перспективы совершенствования системы путем их устранения. Платежная система – одна из важнейших составляющих национальной финансовой инфраструктуры, эффективное функционирование которой позволяет быстро, безопасно и надежно осуществлять взаиморасчеты между банками. Сегодня стремительное развитие электронных платежных средств в Узбекистане, глубокое проникновение цифровых технологий в банковскую сферу предъявляют высокие требования к платежной системе. Поэтому актуальным вопросом рассматривается модернизация межбанковского платежного механизма, его автоматизация и соответствие международным стандартам. В статье будут проанализированы правовые основы межбанковской платежной системы, новые технологии, внедренные Центральным банком, существующие платформы и порядок их функционирования. Кроме того, изучается международный опыт, в частности передовые аспекты платежных систем развитых стран, выдвигаются предложения по их внедрению в национальную систему. В ходе исследования были выявлены основные проблемы системы – задержки, недостатки безопасности, технические сбои, сбои в обмене данными, разработаны пути их устранения.

**Ключевые слова:** Банк, межбанковская платежная система, Электронные платежи, цифровые банковские услуги, национальная платежная система, платежная инфраструктура, межбанковские операции, Центральный банк, безопасность платежей, транзакции, финансовые технологии, цифровая трансформация, международные платежные системы, экономическая эффективность.

## KIRISH

Bugungi kunda moliya tizimi har qanday davlat iqtisodiyotining yuragi hisoblanadi. Ayniqsa, banklar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning o'zaro hisob-kitob mexanizmlarini to'g'ri yo'lga qo'yish mamlakatdagi umumiy moliyaviy barqarorlik va ishonch muhitini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Banklararo to'lov tizimi – bu tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar o'rtasidagi mablag'lar harakatini tezkor, xavfsiz va ishonchli amalga oshirish imkonini beruvchi tizim bo'lib, u davlat miqyosida moliyaviy infratuzilmaning asosiy bo'g'ini sifatida shakllanadi. Ushbu tizim orqali banklar o'rtasida to'lovlar, hisob-kitoblar, kredit resurslari harakati va boshqa moliyaviy operatsiyalar markazlashtirilgan holda, nazorat ostida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan boshqariladigan banklararo to'lov tizimi hozirda mamlakat ichidagi moliyaviy operatsiyalarning asosiy qismini qamrab oladi. Ushbu tizimning samarali ishlashi nafaqat banklarning o'zaro hisob-kitoblarini soddalashtiradi, balki milliy to'lov tizimining ishonchliligini oshirish, pul muomalasi barqarorligini saqlash va raqamli moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, bugungi raqamli transformatsiya jarayonlarida to'lov tizimining texnologik jihatdan mukammal bo'lishi davlat va aholi manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda elektron to'lov infratuzilmasi rivojlanmoqda, aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi ortib bormoqda. Shu bilan birga, xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiya qilish, milliy tizimning texnik va huquqiy asoslarini yangilash, xavfsizlik standartlarini takomillashtirish kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Mavjud to'lov tizimi ayrim hollarda sekin ishlashi, muvofiqlashtirilmagan ma'lumotlar almashinuvi yoki texnik uzilishlar sababli banklar o'rtasida to'lov operatsiyalarining kechikishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatlar esa nafaqat moliyaviy tashkilotlar, balki ularning mijozlari ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda banklararo to'lov tizimlari yuqori darajadagi avtomatlashtirish, real vaqt rejimidagi hisob-kitoblar va sun'iy intellekt elementlarini joriy etish orqali yuqori samaradorlikka erishgan. O'zbekistonning ushbu yo'nalishda olib borayotgan islohotlari muhim bo'lishiga qaramay, bu tizimda yanada keng ko'lamli modernizatsiya va innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurati mavjud.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklararo to'lov tizimi zamonaviy moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, banklar o'rtasida tez va ishonchli hisob-kitoblar yuritilishini ta'minlaydi. Bu tizim mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi izlanishlar ushbu tizimning texnologik asoslari, xavfsizlik choralari hamda raqamli transformatsiya sharoitidagi rivojlanish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Taniqli iqtisodchi olimlardan biri A.A. Xaydarov banklararo to'lov tizimi moliyaviy infratuzilmaning asosi sifatida barqaror iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ekani haqida fikr bildiradi. Uning fikriga ko'ra, "zamonaviy to'lov tizimlarisiz bozor munosabatlarini to'laqonli amalga oshirish, shuningdek, iqtisodiy ayirboshlash munosabatlarini tartibga solish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi. Shu sababli, milliy to'lov tizimining ishonchli, samarali va xavfsiz faoliyati iqtisodiyotning umumiy funksional holatiga bevosita ta'sir qiladi" degan xulosaga



keladi. U o'zining tadqiqotlarida ayniqsa banklararo hisob-kitob markazlari faoliyatining uzluksizligi va muvofiqlashtirilgan boshqaruvning o'ri haqida batafsil ma'lumot beradi [5].

Shuningdek, M.A. Raxmatov o'z tadqiqotida banklararo to'lov tizimining texnologik transformatsiyasi va uning samaradorlikka ta'siri haqida fikr yuritadi. U shunday deydi: "Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi banklararo to'lov tizimlarida tranzaksiyalar tezligini keskin oshirdi, bu esa korxonalar va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish qulayligini sezilarli darajada yaxshiladi". Uning ta'kidlashicha, "to'lov tizimlarining avtomatlashtirilgan, real vaqt rejimidagi ishlashini ta'minlovchi zamonaviy dasturiy vositalar bank tizimi ishonchlilikini oshiradi va xatoliklar ehtimolini kamaytiradi" [6].

A.Q. Mamajonov esa o'z ilmiy maqolalarida to'lov tizimlarining institutsional jihatlarini ko'rib chiqadi. Unga ko'ra, "milliy to'lov tizimini rivojlantirishda Markaziy bankning roli beqiyosdir. Aynan Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy asoslar va texnik reglamentlar tizimni muvofiqlashtirib borishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi". Uning fikricha, to'lov tizimlarining ishtirokchilari o'rtasida huquqiy, texnologik va operatsion muvofiqlik mavjud bo'lishi tizimning barqaror va xavfsiz ishlashini ta'minlaydi [7].

Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlarda ham banklararo to'lov tizimlariga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, rossiyalik olimlardan biri A.E. Lansov to'lov tizimlarini iqtisodiy infratuzilmaning asosiy ko'rinishi sifatida talqin etadi. Uning ta'kidlashicha, "banklararo to'lov tizimlari moliyaviy muomalalarning uzluksizligini ta'minlovchi asosiy vositadir. Ular bo'lmas ekan, iqtisodiy tizimdagi likvidlik muammolari, hisob-kitoblarning kechikishi va ishonchning susayishi holatlari yuzaga keladi" [8].

Banklararo to'lov tizimlarining rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'zni tobora ortib bormoqda. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, real vaqt rejimidagi bruto hisob-kitob tizimlari (RTGS), to'lovlarni markazlashgan tarzda boshqarish tizimlari (switching centers) va boshqa zamonaviy platformalarning joriy etilishi banklararo hisob-kitoblar tezkorligini oshiradi, moliyaviy tavakkalchilikni kamaytiradi. Shu yo'nalishda iqtisodchi olim G.R. Karimovanning fikrlari e'tiborga molik. U o'z asarlarida quyidagicha ta'kidlaydi: "O'zbekiston bank tizimida milliy to'lov tizimining shakllanishi jarayonida, ayniqsa AKT vositalarining keng qo'llanilishi orqali to'lovlar tezkorligi va shaffofligini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, bank xizmatlari qamrovini kengaytirishga xizmat qilmoqda" [9].

Ushbu yondashuvlarga asoslanib aytish mumkinki, banklararo to'lov tizimining mexanizmlarini takomillashtirish va uni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish orqali iqtisodiy ayirboshlash jarayonlari samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy asoslar, empirik tahlillar va muayyan mamlakatlar tajribasi ushbu yo'nalishda strategik qarorlar qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollarini o'rganishda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Maqolani yozish jarayonida amaldagi milliy to'lov tizimi holatini chuqur tahlil qilish, uning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unligini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajribalar, jumladan rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan real vaqt rejimidagi hisob-kitob tizimlari, blokcheyn texnologiyalari va raqamli identifikatsiya vositalari o'rganildi.

Tadqiqotda statistik tahlil, taqqoslash, kontent tahlili va amaliy kuzatuv usullaridan foydalanildi. Ma'lumot manbai sifatida Markaziy bank ma'lumotlari, tijorat banklarining ochiq statistikasi hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hisobotlari asos qilib olindi. Shuningdek, bank sohasidagi so'nggi raqamli tendensiyalar va texnologik innovatsiyalar o'rganilib, ularning milliy to'lov tizimiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekistonda banklararo to'lov tizimini yanada ishonchli, tezkor va zamonaviy talablar darajasida tashkil etish yo'llarini aniqlashdan iborat.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida moliyaviy infratuzilmaning, xususan to'lov tizimining izchil takomillashuvi muhim o'rin tutadi. Mustaqillik yillaridan buyon respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moliyaviy muomalalarni tartibga soluvchi, naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta'minlovchi to'lov tizimi bosqichma-bosqich shakllandi va rivojlanib bordi. Ushbu tizim bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, banklararo operatsiyalar, budjet to'lovlari, aholining kundalik moliyaviy amaliyotlarida muhim funksiyani bajarib kelmoqda. Dastlabda oddiy va sekin ishlovchi hisob-kitob usullaridan foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik texnologik yutuqlar asosida avtomatlashtirilgan, elektron shakldagi tezkor to'lov tizimlari joriy etilgan (1-jadval):



1-jadval. O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimining rivojlanish bosqichlari [13].

| Bosqich   | Yillar    | Asosiy voqealar va o'zgarishlar                                                                                                                                                                                                                             |
|-----------|-----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich | 1991-1994 | Hisob-kitoblar pochta orqali, muddat uzoq. Elektron pochta tizimi yaratildi. Axborotlashtirish boshqarmalari tashkil etildi. 1994 yildan elektron to'lov tizimi ishlay boshladi.                                                                            |
| 2-bosqich | 1995-1997 | Jahon banki mablag'i hisobiga yangi elektron to'lov tizimi yaratildi. Kliring markazlari qisqartirildi. To'lovlar muddati viloyatda – 1 soat, respublika bo'yicha – 2 soatga tushdi.<br>Hisob-kitoblar yuqori tezlikda amalga oshirila boshlandi.           |
| 3-bosqich | 1998-2003 | Jahon banki bilan shartnoma. To'lov tizimi, bank telekommunikatsiyasi, axborot tizimi va xavfsizlik takomillashtirildi. Yagona vakillik hisobvaraqlari joriy etildi.<br>Plastik kartalar tizimi yo'lga qo'yildi. Yagona protsessing markazi tashkil etildi. |
| 4-bosqich | 2004-2012 | Yagona balans tizimi, IATT tizimi yaratildi. "Elektron hukumat" loyihasi doirasida kliring tizimi amaliyotga tatbiq etildi. Real vaqt rejimida to'lovlar yo'lga qo'yildi.<br>"Uzkart" tizimi va banklararo universal netting tizimi tashkil etildi.         |
| 5-bosqich | 2015-2019 | "Humo" to'lov tizimi yo'lga qo'yildi. Tezkor to'lovlar tizimi (24/7) joriy qilindi. "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.                                                                                                      |

Mazkur jadvalda ko'rsatilganidek, O'zbekistonda banklararo to'lov tizimi mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bosqichma-bosqich rivojlangan. 1991–1994-yillarda asosiy to'lovlar pochta orqali amalga oshirilgan bo'lib, bu jarayon juda sekin va samarasiz edi. Biroq elektron pochta tizimining joriy etilishi va axborotlashtirish boshqarmalarining tashkil etilishi keyingi islohotlarga zamin yaratdi. 1995–1997-yillarda Jahon banki bilan hamkorlikda yangi elektron to'lov tizimi yo'lga qo'yilib, kliring markazlari qisqartirildi va to'lovlar muddati ancha qisqardi. 1998–2003-yillar oralig'ida bank tizimining axborot xavfsizligi, telekommunikatsiya infratuzilmasi va to'lov vositalari modernizatsiya qilindi. Ayniqsa, plastik kartalar va yagona protsessing markazining joriy etilishi muhim yangilik bo'ldi. 2004–2012-yillar oralig'ida "Uzkart" va IATT tizimlari joriy etildi, to'lovlar real vaqt rejimiga o'tkazildi. So'nggi bosqich – 2015–2019-yillarda esa "Humo" tizimi, 24/7 ishlovchi tezkor to'lov tizimi va soha bo'yicha qonunchilik asoslari ishlab chiqildi. Umuman olganda, tizim izchil va zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashib, aholiga sifatli va xavfsiz xizmat ko'rsatish imkonini bermogda.

Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari zamonaviy bank tizimi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida keltirilgan jadvalda banklararo to'lov tizimini takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar, ularning maqsadi va kutilayotgan natijalari yoritilgan. Bu ma'lumotlar to'lov tizimining texnologik, tashkiliy va huquqiy jihatlarini yanada takomillashtirish orqali umumiy moliyaviy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi (2-jadval):

2-jadval. Banklararo to'lov tizimini rivojlantirish istiqbollari<sup>1</sup>.

| Yo'nalish                                              | Maqsadi                                             | Kutilayotgan natija                                                        |
|--------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| Raqamli texnologiyalarni joriy etish                   | Real vaqt rejimida to'lovlarni amalga oshirish      | To'lovlar tezligi ortadi, tizim ishonchliligi oshadi                       |
| Blokcheyn texnologiyasi asosida ishlovchi platformalar | To'lov xavfsizligini kuchaytirish                   | Firibgarlik holatlari kamayadi, tranzaksiyalarning shaffofligi oshadi      |
| Markazlashtirilgan to'lov tizimini avtomatlashtirish   | Banklararo hisob-kitoblarni soddalashtirish         | Operatsion xarajatlar kamayadi, inson omilidan xoli tizim shakllanadi      |
| Xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiya            | Transchegaraviy to'lovlarni soddalashtirish         | Eksport-import faoliyati faollashadi, xorijiy investitsiyalar oqimi ortadi |
| Kiberxavfsizlikni kuchaytirish                         | Tizimni tashqi xatarlardan himoya qilish            | Banklararo tizim barqarorligi oshadi, foydalanuvchi ishonchi ortadi        |
| Banklararo hamkorlikni kengaytirish                    | Tajriba almashinuvi va innovatsiyalarni joriy etish | Soha ishtirokchilari o'rtasida uzviy aloqa vujudga keladi                  |


1 Muallif tomonidan tayyorlangan



Ushbu jadvalda ko'rsatilgan rivojlantirish yo'nalishlari banklararo to'lov tizimining texnologik salohiyatini oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va xalqaro moliyaviy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan. Har bir yo'nalish aniq maqsad va natijani o'z ichiga olgani sababli, ular amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinsa, tizimda sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu esa O'zbekistonning moliyaviy infratuzilmasini zamon talablariga mos shakllantirish imkonini beradi.

Banklararo to'lov tizimining ishtirokchilari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish va ularga xizmat ko'rsatish uchun foydalanuvchi banklarning Markaziy bank Xizmatlar ko'rsatish markazi (MB HKM) bilan, banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun esa Avtomatlashtirilgan banklararo markaz (ABM) bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida tartibga solinadi (1-rasm):

### Elektron to'lov hujjatlarning o'tish sxemasi



1-rasm. Elektron to'lov hujjatlarining o'tish sxemasi [13].

Bu rasmda elektron to'lov hujjatlari qanday tarzda harakatlanishi ko'rsatilgan. Mijozlar to'lov topshiriqlarini avvalo o'z bankining filialiga yuboradi. Filiallar ushbu hujjatlarni bankning bosh ofisiga jo'natadi. A va B banklarining bosh ofislari esa o'zaro aloqada bo'lib, barcha to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahridagi Hisob-kitoblar markazi (MB HKM) orqali amalga oshiriladi. Mazkur markaz barcha banklar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi bo'lib xizmat qiladi. Elektron to'lovlar shu tarzda markazlashgan holda, xavfsiz va tezkor shaklda banklar o'rtasida harakatlanadi. Bu tizim mijozlar uchun qulaylik yaratadi va banklararo hisob-kitoblarni soddalashtiradi.

Bunda, agarda MB HKM va bank o'rtasidagi shartnomada boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, to'lovlar banklardan faqat vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida amalga oshiriladi. Soat 9:00 dan 17:00 gacha – banklararo hisob-kitoblar bo'yicha elektron to'lov hujjatlarini (ETH) uzatish, qabul qilish va nazorat qilish vaqti hisoblanadi. Banklar mazkur vaqt oralig'ining istalgan paytida MB HKMga ETHlarni uzatishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, 2021–2022-yillar davomida, aniqrog'i 2021-yil 1-yanvardan 2022-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda banklar tomonidan ushbu tizim orqali jami 57 054 675 ta tranzaksiya amalga oshirilgan. Bu ko'rsatkich avvalgi yillarga nisbatan sezilarli o'sishni ifodalaydi (2-rasm):

**Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi  
orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni**

2-rasm. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar sonini [13].

Yuqoridagi rasmda shuni ko'rishimiz mumkinki, 2004–2018-yillar oralig'ida tranzaksiyalar soni barqaror o'sib borgan, 2017-yilda esa eng yuqori cho'qqiga – 77 162 ming tranzaksiyaga yetgan. 2019-yildan boshlab esa kamayish kuzatilgan. Ayniqsa, 2020-yilda keskin tushish sodir bo'lgan bo'lib, bu holat pandemiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2021-yilda tranzaksiyalar soni biroz ko'tarilib, 57 055 mingga yetgan. Umuman olganda, tizimdagi tranzaksiyalar soni o'sish va pasayish bosqichlarini boshdan kechirgan. Bu holat iqtisodiy va texnologik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2024-yil davomida mamlakatimizda banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan moliyaviy tranzaksiyalar umumiy hajmi 7 279 trillion so'mga yetgani kuzatildi. Bu ko'rsatkich bank tizimidagi operatsiyalar hajmining yuqori darajada o'sayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Tezkor to'lovlar tizimi orqali bajarilgan operatsiyalar soni 47,6 million donani tashkil etib, aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi moliyaviy almashinuvda ushbu tizim muhim rol o'ynayotganini isbotlaydi. Bundan tashqari, QR-kod texnologiyasi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 441,7 milliard so'mga yetib, raqamli to'lov vositalarining kundalik hayotda keng qo'llanilayotganini tasdiqlaydi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatda raqamli moliya infratuzilmasining bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, banklararo to'lov tizimi har qanday davlat moliyaviy infratuzilmasining asosiy bo'g'ini sifatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizim orqali banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar, to'lov operatsiyalari va moliyaviy axborotlar tezkor va xavfsiz tarzda amalga oshiriladi. Tizimning samarali faoliyati moliyaviy institutlar o'rtasida ishonch muhitini mustahkamlaydi, raqobatbardoshlikni oshiradi va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich chuqurlashuvi doirasida banklararo to'lov tizimining texnologik, huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish istiqbollari yanada kengaymoqda.

O'tkazilgan tahlillar asosida tizimda hozirgacha salmoqli yutuqlarga erishilgani e'tirof etiladi. Shu bilan birga, zamonaviy talablar va texnologik taraqqiyot bilan hamqadamlikni ta'minlash uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Xususan, banklararo operatsiyalarning ijrosini yanada tezlashtirish, tizimlararo integratsiyani chuqurlashtirish va texnik yechimlarni ilg'orlashtirish bo'yicha aniq metodik yo'nalishlar belgilab olinmoqda.

Kelgusida tizimni modernizatsiya qilish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilanishi maqsadga muvofiq: birinchidan, to'lov tizimlarini avtomatlashtirish darajasini oshirish orqali real vaqt rejimidagi hisob-kitoblar infratuzilmasini keng joriy etish. Bu, o'z navbatida, banklararo operatsiyalar samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, milliy to'lov tizimini xalqaro moliyaviy tizimlar bilan uzviy integratsiya qilish orqali transchegaraviy operatsiyalarni soddalashtirish va ularning ishonchliligini ta'minlash istiqbollari mavjud. Bu yo'nalish O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirishga hissa qo'shadi.





Shuningdek, tizim xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish, blokcheyn va sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish muhim strategik bosqich sifatida qaralmoqda. Bu bilan birga, banklar, Markaziy bank va moliyaviy texnologiyalar sohasidagi innovatsion subyektlar o'rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirish, yagona texnik standartlar va axborot almashinuvi protokollarini ishlab chiqish orqali tizimni samarali boshqarish imkoniyatlari kengayadi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish esa to'lov tizimi ishtirokchilarining raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilib, bank xizmatlarining qamrovini kengaytiradi. Bu orqali nafaqat banklararo tizim, balki umumiy iqtisodiy muhit ham yanada ochiq va samarali tus oladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda banklararo to'lov tizimini takomillashtirish uchun texnologik innovatsiyalar, xorijiy ilg'or tajriba va mahalliy ehtiyojlarni uyg'unlashtirgan holda bosqichma-bosqich yondashuv asosida islohotlarni chuqurlashtirish zarur. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, normativ-huquqiy bazani zamonaviylashtirish va moliyaviy barqarorlikka xizmat qiluvchi strategik chora-tadbirlar tizimni jahon moliyaviy makoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi 154-I-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 13-sentabrda PQ-3272-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-oktyabrda PF-6079 sonli Farmoni.
5. A.A.Xaydarov. Moliyaviy infratuzilma va to'lov tizimlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. 234 bet.
6. M.A.Raxmatov. "To'lov tizimlarining transformatsiyasi va iqtisodiy samaradorlikka ta'siri". // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. №4. – B. 56–63.
7. A.Q.Mamajonov. "Milliy to'lov tizimining institutsional asoslari va rivojlanish tendensiyalari". // O'zbekiston moliyasi. – 2023. №2. – B. 45–50.
8. Ланцов А.Е. Инфраструктура: понятие, виды и значение // Статистика и экономика. 2013. №3. С. 49–54.
9. Г.Р.Каримова. "Роль ИКТ в развитии межбанковской платежной системы Узбекистана". // Банк и технологии. – 2022. №1. – С. 23–30.
10. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi sayti
11. <https://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
12. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti
13. <https://cbu.uz/> – O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki sayti



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>